

Tuyev Fazliddin Erkinovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

dotsenti, mustaqil izlanuvchi

<https://orcid.org/0009-0008-9582-2598>

fazli1820bek@gmail.com

NAVOIY, SAMARQAND VA BUXORO VILOYATLARIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK: 2017-2023 – YILLAR MISOLIDA

Annotatsiya. 2017-2023-yillar Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlariga chet el investitsiyalarining kiritilishi. Hududiy investitsiya dasturlari doirasida esa viloyatlarda 2017-2021-yillar davomida investitsiyon loyihalar asosida xorijiy sarmoyalarning jalb qilinganligi va bu orqali mintaqada doimiy va mavsumiy ish o'rinlarining tashkil qilinishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Navoiy, Samarqand va Buxoro, Tashqi savdo, investitsiya, milliard so'm, Qonun, AQSh dollari, Rossiya, Armaniston, Shveysiya, Italiya, Buyuk Britaniyaga, AQSh, Belgiya, Pokiston, Xitoy.

ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ В НАВОЙСКОЙ, САМАРКАНДСКОЙ И БУХАРСКОЙ ОБЛАСТЯХ: НА ПРИМЕРЕ 2017-2023 ГОДОВ

Аннотация. 2017-2023 гг. приток иностранных инвестиций в Навоийскую, Самаркандскую и бухарскую области. А в рамках территориальных инвестиционных программ приводятся данные о привлечении иностранных инвестиций на основе инвестиционных проектов в регионах в течение 2017-2021 годов и организационных через них постоянных и сезонных рабочих мест в регионе.

Ключевые слова: Узбекистан, Навои, Самарканд и Бухара, внешняя торговля, инвестиции, миллиард сумов, закон, доллар США, Россия, Армения, Швеция, Италия, Великобритания, США, Бельгия, Пакистан, Китай.

INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN NAVOI, SAMARKAND AND BUKHARA REGIONS: ON THE EXAMPLE OF 2017-2023

Annotation. 2017-2023 introduction of foreign investments in Navoi, Samarkand and Bukhara regions. As part of the regional investment programs, the regions provide information on the involvement of foreign investment on the basis of investment projects during 2017-2021, and through this, the organization of permanent and seasonal jobs in the region.

Keywords: Uzbekistan, Navoi, Samarkand and Bukhara, Foreign Trade, Investment, billion soums, Law, US dollars, Russia, Armenia, Switzerland, Italy, United Kingdom, USA, Belgium, Pakistan, China.

2017-yildan O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalar jalb qilinishi tarixida yangi sahifalar ochildi. Investitsiyalar oqimining jadallashishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimiga bog'liq. Dsotlab bu borada Harakatlar strategiyasi hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan g'oyalarni hayotga joriy etish, mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish hamda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning xalqaro aloqalari tarixiga bag'ishlab yozilgan ishlarga Z.Nuriddinov, A.Qirg'izboyev, S.Jo'rayev, M.Raximov va boshqalarning kitoblarini kiritish mumkin. Milliy va mahalliy davlat arxivi materiallari, davriy matbuot hamda ilmiy-ommabop nashrlardan foydalangan holda, tanlangan muammo mohiyatini ochib beradi. 2017-2023 yillarda Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida investitsion jozibadorligini o'rganish jarayonida iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, dinamikada o'rganish, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi[1] Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi[2] 2018-yil 1-avgust PF-5495 sonli Farmonida belgilanganidek, sarmoya kiritish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan, investitsiya faoliyati sohasidagi unifikatsiya qilingan qonun hujjati loyihasini yanada takomillashtirib tez fursatda hayotga tatbiq etish zarur edi. Dastlab investitsiya sohasidagi yagona hujjat sifatida Investitsiya kodeksi konsepsiyasi ishlab chiqilib muhokamaga qo'yildi. Keyinchalik loyiha "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun nomini oldi. Mazkur qonun "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida", "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida", "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida", "Konsessiyalar to'g'risida", "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi[3] qonunlar va boshqa hujjatlarda, shuningdek bir qator qonunosti hujjatlarda mavjud bo'lgan normalarni tizimli ravishda o'zida mujassamlashtirdi. Yuqorida qiyd qilingan qonun va qonun osti hujjatlarini ijrosini ta'minlash maqsadida respublikaga xorijiy investitsiyalar jalb qilish borasida AQSh, Germaniya, Xitoy, Turkiya, Avstriya, Saudiya Arabiston kabi 100 dan ortiq davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va diplomatik munosabatlarni o'rnatgan. Rivojlangan mamlakatlar bilan viloyatlarga xorijiy investitsiyalar jalb qilishda shartnomalar imzolagan.

Natijada 2017-yilning yanvar-dekabrida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 60 719,2 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 11,9 mlrd. AQSh doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va 2016-yilga nisbatan 107,1 foizni tashkil qildi. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar hajmi 1995-yilga nisbatan 8,7 marta, 2000-yilga 5,8 marta, 2005-yilga 4,6 marta, 2010-yilga 182,2 foiz va 2015-yilga nisbatan 115,3 foizga ko'paydi. YalM ga nisbatan asosiy kapitalga sarmoyalar 24,4 foizni tashkil etib, 2016-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 foiz punktga ko'paydi (1995-yilda 29,4 foiz, 2000-yilda 22,9 foiz, 2005-yilda 19,9 foiz, 2010-yilda 24,6 foiz va 2015 yilda 24,3 foizni tashkil etgan edi). 2017-yilning yanvar-dekabrida jami asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalarning 61,0 foiz Toshkent shahri, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida o'zlashtirildi. Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida yuqori investitsion faollik kuzatildi[4].

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalarning yuqori o'sish suratlari kuzatilgan hududlarni ko'radigan bo'lsak: Buxoro viloyatida 151,7 foiz (11 008,9 mlrd. so'm), Qashqadaryo viloyatida 123,5 foiz (10181,9 mlrd. so'm), Toshkent shahrida 103,7 foiz (11525,9 mlrd. so'm) o'sish sur'ati kuzatildi. Aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga xorijiy sarmoyalar hajmi bo'yicha 2017-yilning yanvar-dekabrida yuqori ko'rsatkichlar Buxoro viloyatida 5929,3 ming so'm (yoki 2016-yilga nisbatan 149,4 foiz), Toshkent shahrida 4714,3 ming so'm (102,2 foiz), Navoiy viloyatida 2930,2 ming so'm (77,5 foiz), qayd etildi[5]. Samarqand viloyatiga 2018-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar 5746,9 mlrd. so'm tashkil qilib, bu 2017-yilning mos davriga nisbatan 119,2 foizni tashkil qildi[6].

2017-2021 yillar davomida Samarqand viloyatiga davlat investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 203,5 mln. dollarlik 37 ta investitsiya liyihalarida yiliga 2,7 trln so'mlik mahsulotlar va xizmatlar hajmi yaratilib, 2963 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilgan[7]. Hududiy investitsiya dasturlari doirasida esa mintaqada 2017-2021-yillar davomida qiymati 24,0 trln. so'mlik 7323 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, yirik va hududiy darajadagi ahamiyatli 8,6 trln. so'mlik 1211 ta loyihalar ajratib olinib, viloyat, shahar va tumanlardagi iqtisodiy idora vakillaridan 670 nafar hamda tijorat banklari vakillaridan 656 nafar ma'sul xodimlarga biriktirilgan[8]. Bu esa, o'zining ijobiy ta'siri bilan viloyatda yangi ish o'rinlarini ko'paytirish imkonini berib, aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga sharoitlar yaratdi.

Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida ham global muammolardan biri bo'ylab elektr energiyasi taqchilligi bir qator mamlakatlarda sezilarli darajada kuzatilmoqda. Energiya resurslari bilan bog'liq geosiyosiy ziddiyatlar va savdo urushlari ba'zi mamlakatlarda energiya taqchilligiga sabab bo'lmoqda. AQShda 82 million odam energiya taqchilligi chegarasida yashaydi, yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 trillion AQSh dollari bo'lgan Ispaniyada ham shu ahvol[9]. Umuman olganda, elektr energiyasi taqchilligi global miqyosda jiddiy muammo bo'lib, uning yechimi uchun xalqaro hamkorlik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur.

O'zbekistonda energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-sentyabr 594-sonli qarori[10], ijrosi ta'minlanib, elektroyenergetika sohasini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejash tizimini joriy etish tadbirlari doirasida elektr energiya iste'mol chilariga elektr energiya sarfini aniq hisobga olishni ta'minlaydigan 273,2 ming dona elektron hisoblagich o'rnatilgan edi[11].

Qolaversa, "Navoiy issiqlik elektrostansiyasi" ochiq aksiyadorlik jamiyati faoliyati 2017-yillardan butunlay yangi bosqichga ko'tarildi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Negaki, Prezidentimiz tomonidan mazkur tarmoqqa qaratilayotgan alohida etibor tufayli ushbu korxonada diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilishi boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 28-dekabrda PQ-4553-son va "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"[12] 2020-yil 9-yanvardagi PQ-4563-son qarorlariga muvofiq hamda zamonaviy energiya tejankor bug'-gaz qurilmalarini qurish hisobiga respublikaning elektr energetika tizimida generatsiya quvvatlarini ko'paytirish, tizimining ishonchliligini va xavfsizligini mustahkamlash maqsadida bir qator ishlar amalda bajarildi.

Xususan, korxonalarida 2023-2024-yilgi kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish yuzasidan tizimli ishlar olib borildi. Jumladan, "Navoiy IYES" AJning 478 MVtli bug'-gaz qurilmasida kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Ta'mirlash ishlariga 100 nafar ishchi-xodim jalb etilgan bo'lib, ular Yaponiyaning "Mitsubishi Corporation" firmasidan kelgan 40 nafar malakali mutaxassis bilan hamkorlikda ish olib bordi[13].

Navoiy issiqlik elektr stansiyasida 2023-yilning 8 oyi mobaynida 7,1 mlrd. kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, belgilangan reja 105,1 foizga bajarilishiga erishildi. Bu davr mobaynida 1 kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun rejadagi 323,2 gramm.kVt·soat o'rniga, 308,86 gramm.kVt·soat shartli yoqilg'i sarflandi. Ma'lumot o'rnida, korxonada sutkasiga o'rtacha 19,2 mln.kVt·soat elektr energiyasi, 0,871 ming Gkal issiqlik energiyasi ishlab chiqarilmoqda[14].

Buxoro viloyatida 270 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish loyihasini (loyiha qiymati 300 mln. AQSh doll. yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 3,1 mlrd. kVt·soat -diss...) amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi PQ-5018-son qarori qabul qilingan. "International Company for water and power projects" (Saudiya Arabistoni) kompaniyasi tomonidan "Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasini qurish" investitsiya loyihasini amalga oshirish (loyiha qiymati 650 mln. AQSh doll. yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 2 mlrd. kVt·soat -diss...) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevraldagi PQ-5003-son qarori qabul qilingan. "International Company for water and power projects" (Saudiya Arabistoni) firmasi tomonidan "Buxoro viloyati Peshku tumanida quvvati 300-500 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasini qurish" investitsiya loyihasini amalga oshirish (loyiha qiymati 650 mln. AQSh doll. yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 1,9 mlrd. kVt·soat Dis...) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevraldagi PQ-5001-son qarori qabul qilingan[15].

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy sarmoyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2021-yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 137,6 foizga o'sib, Sirdaryo viloyatida kuzatildi. Ushbu natijani 1500 MVt quvvatga ega yangi elektr stansiyasi va 220 MVt quvvatga ega gaz pistonli elektr stansiyasini qurish kabi yirik loyihalarga investitsiyalarni o'zlashtirish bilan izohlash mumkin. Shuningdek, Samarqand viloyatida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2021-yilga nisbatan 129,5 foiz ni tashkil qildi. Bu hududda turistik markaz qurilishi, quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi, Samarqand kimyo majmuasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilgan[16].

Samarqand viloyatida loyihalari asosida 2024-yil davomida qarib bir milliard dollar investitsiya mablag'lari o'zlashtirilib, 2023-yil bilan solishtirganda, 368 million dollar ko'p yoki 163 foizni tashkil qilgan. Mintaqaga sarmoyalar jalb qilinishini davlatlar kesimida tahlil qilganda, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar asosan Xitoy (400,3 mln. dollar), Rossiya (72,1 mln.), Turkiya (63,8 mln.), Kipr (78,4 mln.), BAA (64 mln.), Niderlandiya (62,3 mln. dollar) davlatlari hissasiga to'g'ri keladi[17]. Qolaversa, Buxoro viloyatida 2019-yil davomida 255 mln. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni o'zlashtirish yuzasidan loyihalar manzilli ro'yxati tasdiqlanib, 1-chorakning yarmida jami 165,5 mln. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni o'zlashtirilib, yilliq ko'rsatkichga nisbatan 64,9 foizni tashkil etgan. Shuningdek, hududiy investitsiya dasturi doirasida xuddi shu vaktida 1 trln. 216,5 mlrd. so'mlik 140 ta liyihalar amalga oshirilib, 2571 ta ish o'rnlari yaratilgan[18]. 2019-yilning birinchi yarim yilligida 423 ta loyiha doirasida 3 trln. 342,1 mlrd. so'mlik sarmoyalar o'zlashtirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4067-sonli qarori asosida tasdiqlangan 2019-yilga mo'ljallangan investisiya dasturi doirasida 1-yarim yillikda viloyatda amalga oshirildan 32 ta loyiha bo'yicha 184,1 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan. Shu yili xorijiy sarmoyalar hisobidagi korxonalar soni yil boshiga nisbatan 68 taga ko'payib, 231 tani tashkil etgan. Bular asosan, Rossiya (42), Turkiya (33), Xitoy (2), Janubiy Koreya (20), Eron (11) va boshqa xorijiy mamlakatlari kapitali ishtirokidagi korxonalardir[19].

Buxoroda xususan, budget daromadlariga 2019-yilning 1-yarim yilligi uchun belgilangan 1,9 trln. soʻmlik prognoz koʻrsatkichi 114 foizga bajarilgan. Shu jumladan, mahalliy budget tushumi 221,5 mlrd. soʻmni tashkil etgan. 2019-2020 yillarga moʻljallangan investitsiya dasturi doirasida jami 14,6 trln. soʻmlik 615 ta liyiha amalga oshirilishi belgilangan boʻlib, 2019-yilning 1-yarmida 401 ta loyiha boʻyicha tijorat banklar va loyiha tashabbuskorlarining 3,7 trln. soʻmlik mablagʻlar oʻzlashtirilgan. Shu davr ichida 208 ta liyiha ishga tushib, 4 mingga yaqin yangi ish oʻrinlar yaratilgan. Shuning hisobiga 192,6 mln. AQSh dollarlik toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar kiritilib, ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 barobarga oshgan[20].

Buxoro viloyatini 2021-2023 yillarda rivojlantirish dasturiga muvofiq, umumiy qiymati 19,2 trln. soʻmga teng 713 ta investitsiya loyihalari amalga oshirilishi hisobiga 23718 nafar yangi ish oʻrinlari belgilangan edi. 2021-yilning yanvar-iyun oylarida qiymati 634,3 mlrd. soʻm (386,3 mlrd. soʻm tashabbuskorlar mablagʻlari, 87,9 mlrd. soʻm bank kreditlari, 14,7 mln. dollar qiymatidagi xorijiy kreditlar) boʻlgan 160 ta loyihalar ishga tushirilib, 1337 nafar yangi ish oʻrinlari yaratilgan. Jumladan, Gʻijduvon tumanida "Parvoz Xumo Ravnaq Trans" MChJ negizida qiymati 25,4 mln. dollarga teng matoni boʻyash va tayyor gazlama ishlab chiqarish hisobiga 144,0 mlrd. soʻmlik tekstil mahsulotlari chiqarilishi, natijada 260 ta ish oʻrinlari yaratilgan. Kogon tumanida "Kumushkent teks" MChJ negizida qiymati 32,8 mlrd. soʻmga teng boʻlgan tekstil mahsulotlari ishlab chiqish loyihasini amalga oshirish tufayli 70 ta yangi ish oʻrinlari tashkil qilingan[21].

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan sarmoyalarning asosiy qismi, yaʼni 62,4 foizi respublikaning olti hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 22,2 foiz, Qashqadaryo viloyatida – 9,9 foiz, Toshkent viloyati – 9,4 foiz, Navoiy viloyatida – 7,9 foiz, Samarqand 6,6 foiz va Jizzax viloyatlarida 6,4 foizdan investitsiyalar oʻzlashtirildi. Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan sarmoyalarning yuqori oʻsish surʼatlari quyidagi hududlarda kuzatildi: Samarqand viloyatida – 117,9 foiz (13426,0 mlrd. soʻm), Fargʻona viloyatida – 116,4 foiz (11320,0 mlrd. soʻm), Xorazm viloyatida – 114,5 foiz (6663,2 mlrd. soʻm)[22]. Investitsion faollikni past darajalari Qashqadaryo viloyatida – 74,1 foiz (investitsiyalar hajmi 19921,7 mlrd. soʻm), Navoiy viloyatida – 78,7 foiz (16042,6 mlrd. soʻm) kuzatildi[23].

2022-yil davlat budjeti mablagʻlari hisobidan asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan xorijiy sarmoyalar hududiy tarkibida eng yuqori koʻrsatkichlar Qoraqalpogʻiston Respublikasida – hududdagi jami xorijiy sarmoyalarning 12,7 foizini, Surxondaryo viloyatida – 12,1 foiz va Jizzax viloyatida – 9,7 foiz miqdorida tashkil qilgan. Korxona va tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan investitsiyalar boʻyicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida oʻzlashtirilgan investitsiyalarning 52,1 foizini tashkil etdi. Shuningdek, Toshkent viloyatida 39,3 foiz va Navoiy viloyatida 30,7 foizni tashkil etgandi. Jalb qilingan moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar alohida oʻringa ega. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami xorijiy sarmoyalardagi ulushi boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichlar Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida kuzatilib, mos ravishda 77,5 va 56,8 % ni tashkil etgandi[24].

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan xorijiy sarmoyalarning asosiy qismi, respublikaning toʻrt hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 21 foiz, Toshkent – 13 foiz, Buxoro va Samarqand viloyatlarida – 8 foiz investitsiyalar oʻzlashtirildi. Aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan xorijiy sarmoyalar hajmi boʻyicha yuqori koʻrsatkichlar Toshkent shahrida – 19500,1 ming soʻm (yoki 2021-yilga nisbatan taqqoslaganda – 84,4 foiz), Navoiy – 18556,2 ming soʻm (yoki 115,8 foiz) va Sirdaryo – 14167,1 ming soʻm (yoki 134,8 foiz) miqdorida koʻrsatkichlarga erishgan[25].

2023-yil yanvar-sentyabr oylarida davlat budjeti mablagʻlari hisobidan asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori koʻrsatkichlar Samarqand viloyati 5,6 foizni tashkil qilgan. Korxona va tashkilotlarning oʻz mablagʻlari hisobidan investitsiyalar boʻyicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda oʻzlashtirilgan investitsiyalarning 41,5 foizni tashkil etdi. Shuningdek, Samarqand viloyatida 31,4 foizni tashkil etgandi. Jalb qilingan moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar alohida oʻringa ega. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami xorijiy sarmoyalardagi ulushi boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichlar Buxoro – (83,8 foiz), Navoiy – (79,2 foiz) va Namangan – (77,9 foiz) mintaqalarida kuzatildi. Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, yaʼni 58,0 foizi respublikaning besh hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 16,9 foiz, Toshkent viloyatida – 14,7 foiz, Buxoro viloyatida – 10,3 foiz, Namangan viloyatida – 9,0 foiz hamda Qashqadaryo viloyatida – 7,1 foiz xorijiy sarmoyalar oʻzlashtirildi. Aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan xorijiy sarmoyalar hajmi boʻyicha yuqori koʻrsatkichlar Navoiy viloyatida – 21 642,2 ming soʻm (yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan taqqoslaganda – 126,8 foiz), Toshkent shahrida

12 – 18 949,8 ming so‘m (yoki 115,4 foiz) va Buxoro viloyatida –17 188,5 ming so‘m (yoki 142,1 foiz) miqdorida qayd etilgan[26].

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yid davomida jami 352 064,1 mlrd. so‘m investitsiyalar jalb qilingan. qayd qilingan sarmoyani hududlar bo‘yicha solishtiradigan bo‘lsak, Buxoro 31 301,2 mlrd., Samarqand 26 584,6 mlrd., Navoiy esa 25 866,8 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Navoiy viloyatida asosiy kapitalga xorijiy sarmoyalar hajmining 2022-yilga nisbatan 133,6 foizga o‘sishi, avvalam bor quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi qurilishi, oltin konlarini qayta ishlash va qazib chiqarish majmuasi qurilishi bilan bog‘liq. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya‘ni 55,7 foizi respublikaning besh hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 19,3 foiz, Toshkent – 12,6 foiz, Samarqand – 7,6 foiz, Buxoro – 8,9 foiz hamda Navoiy – 7,3 foiz xorijiy sarmoyalar o‘zlashtirildi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Navoiy viloyatida – 24 278,9 ming so‘m (yoki 2022 yilga nisbatan taqqoslaganda – 131,0 foiz), Toshkent shahrida – 22 644,8 ming so‘m (yoki 107,2 foiz) va Sirdaryo viloyatida –16 954,7 ming so‘m (yoki 111,6 foiz) miqdorida qayd etildi[27].

Xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning hududlarida yaratilgan investitsion jozibadorlik, qulay investitsion muhit va hududlarning nisbiy afzalliklari muhim o‘rin tutadi. Va bu orqali viloyatlarda qo‘shimcha ish o‘rinlarini tashkil qilinishida o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatdi. Aynan yuqoridagi omillarga xorijiy investorlar tomonidan alohida e‘tibor berildi. Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda turli uslublardan foydalanildi. Ularning bir-biridan farqi investitsion muhitni belgilaydigan omil va indikatorlarni tanlab olishda namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.12.2019 й., 03/19/598/4221-сон.
2. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018-йил 6 август, 31-сон, 640-модда; “Халқ сўзи”, 2018-йил 2-август; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2018-йил 2-август
3. <https://uza.uz/posts/204964>
4. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг статистик ахборотномаси. 2017-йил январь-декабр. Тошкент – 2018. –198 б.
5. Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг статистик ахборотномаси. 2017-йил январь-декабр. Тошкент – 2018. –61 б.
6. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Самарқанд вилояти статистика бошқармаси. Самарқанд вилоятининг статистик ахборотномаси. 2018-йил январ-декабр. Самарқанд – 2019. –84 б.
7. Самарқанд вилоят ҳокимлиги жорий архиви. Йиғма жилд (02-02/332_05-02/436.) 58-варақ.
8. Самарқанд вилоят ҳокимлиги жорий архиви. Йиғма жилд (02-02/332_05-02/436) 59-варақ.
9. Россия энергетика хабарларини бериб боровчи Energy Today каналига асосланиб хабар берган.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022-йил 9 августдаги 438-сонли қарори таҳририда-Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.08.2022 й., 09/22/438/0726-сон
11. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасини 2009-йилнинг биринчи ярмида ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари. // Халқ сўзи. 2009-йил 4-август, -Б.1.
12. “Навоий иссиқлик электр станциясида 650 мвт қувватли учинчи буғ-газ қурилмасини қуриш” инвестиция лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида.
13. https://uza.uz/uz/posts/navoiy-ies-mavsumga-tayyorlanmoqda_517532
14. Навоий ИЭС Матбуот хизмати.
15. Бухоро вилояти давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 1750-йиғма жилд, 4-варақ.
16. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ҳузуридаги Статистика Агентлиги. Ўзбекистон республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2022-йил январь-декабр. Тошкент – 2023. –519 б.
17. Namroyev O. Xorijiy investitsiyalar salmog‘i oshadi. // Zarafshon, 2025-yil 11-yanvar. 1-varaq.
18. Бухоро вилояти давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 1668-йиғма жилд, 135-варақ.
19. Бухоро вилояти давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 1668-йиғма жилд, 230-варақ.
20. Бухоро вилояти давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 1669-йиғма жилд, 28-варақ.
21. Бухоро вилояти давлат архиви, 1459-фонд, 1-рўйхат, 1753-йиғма жилд, 146-варақ.

22. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2020-йил январь-декабр. Тошкент – 2021. 142 б.
23. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2020-йил январь-декабр. Тошкент – 2021. –494 б.
24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ҳузуридаги Статистика Агентлиги. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2022-йил январь-декабр. Тошкент – 2023. –Б 141.
25. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ҳузуридаги Статистика Агентлиги. Ўзбекистон республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2022-йил январь-декабр. Тошкент – 2023. –Б.142.
26. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ҳузуридаги Статистика Агентлиги. Ўзбекистон республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2023-йил январь-декабр. Тошкент – 2024. –Б.122-125.
27. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ҳузуридаги Статистика Агентлиги. Ўзбекистон республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2023-йил январь-декабр. Тошкент – 2024. –Б.132-133.